TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 9-sentabr | 255-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Toshkent tumani hududidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 586-10-0-Q/24-sonli qarori to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi “Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 163-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 509-10-0-Q/24-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Toshkent tumani hududidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 586-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash**,** Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Toshkent tumani hududidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 586-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-mayda “Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 163-sonli qaroriga muvofiq Toshkent viloyati hududidagi jami 67,55 gektar, shundan 66,98 gektar sug‘oriladigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan tegishlichi aholi punktlarining yerlari toifasiga o‘tkazilganligi;

Toshkent tumani, Ko‘ksaroy MFY hududidagi 3732q-konturda (avvalgi 85-kontur) joylashgan 4,70 gektar yer maydoni viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 509-10-0-Q/24-sonli qarori bilan davlat zaxira yer maydonlari tarkibiga qaytarilganligi inobatga olinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan Loyiha bo‘yicha yangi umumiy o‘rta ta’lim maktablari qurilib foydalanishga topshirilganidan

so‘ng ajratilgan yer maydonlarining ortib qolgan qismini tegishliligi bo‘yicha davlat zaxirasiga qaytarib berilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Buyurtmachi:

davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar bersin hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzishi;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berishi;

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasiga xabarnoma yuborishi;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**